

YOSHLAR MIGRATSIYASI

asosiy sabablar va tendensiyalar

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar, ta'lim va mehnat bozorining integrallashuvi natijasida yoshlar migratsiyasi XXI asrning eng dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda dunyoda 281 million nafar xalqaro migrant qayd etilgan bo'lib, ularning taxminan 38 millioni yoki 13,5 foizini 15-24 yoshdagilar tashkil etgan[1]. Bu raqamlar yoshlar migratsiyasi muammosining global miqyosini ko'rsatadi.

[1] United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2020). International Migration 2020 Highlights (ST/ESA/SER.A/452)



Yoshlar migratsiyasi koʻp qirrali jarayon boʻlib, bir tomondan yoshlarga yangi imkoniyatlar yaratsa, boshqa tomondan jiddiy xatarlarni keltirib chiqaradi. Xususan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining ma'lumotlari dunyodagi yosh migrantlarning 70 foizdan ortigʻi rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgani va ular koʻpincha mehnat ekspluatatsiyasi, kamsitish va boshqa huquqbuzarliklarga duch kelishayotganini koʻrsatadi.

Yoshlar migratsiyasi global hodisa boʻlib, uning sabablari, tendensiyalari mamlakatlar va mintaqalar boʻyicha farq qiladi. Buni xorijiy davlatlar amaliyoti asosida qiyosiy tahlil qilamiz.

Ta'lim olish imkoniyatlarini izlash yoshlar orasida eng keng tarqalgan migratsiya sabablaridan biridir. UNESCO ma'lumotlariga koʻra, 2019-yilda dunyo boʻyicha 5,3 million talaba xorijda ta'lim olgan. Bu raqam 2000-yilga nisbatan ikki barobar koʻpdir. AQSh dunyodagi eng koʻp xalqaro talabalarni qabul qiluvchi mamlakat hisoblanadi. 2019–2020-oʻquv yilida AQShda 1 million 75 ming 496 nafar xalqaro talaba ta'lim olgan. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida Erasmus+ dasturi orqali 2014–2020-yillarda 2 milliondan ortiq talaba almashinuvi amalga oshirilgan. Xitoy hukumati "Study in China" dasturi orqali xorijlik talabalarni jalb qilishga katta e'tibor qaratmoqda. 2018-yilda Xitoyda 492 ming 185 nafar xorijlik talaba ta'lim olgan[2].

Dunyo miqyosida oxirgi 20 yilda oʻqish uchun xorijga ketganlar soni 2,2 milliondan 6,39 millionga yetgan[3]. UNESCOning xorijda tahsil olayotgan talabalar boʻyicha 2021-yildagi hisobotiga (soʻnggi 2 yillik hisoboti hozircha e'lon qilinmagan) koʻra, bu borada xitoylik va hindistonlik[4] talabalar yetakchi hisoblanadi.

Xorijda oʻqiyotgan xitoylik talabalar soni 1 millionni tashkil qilgan boʻlsa, hindistonlik talabalar 508 mingga yetgan. Roʻyxatning keyingi oʻrinlarida

[2] United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2020). International Migration 2020 Highlights (ST/ESA/SER.A/452).
[3] https://kun.uz/news/2024/05/10/talabalari-xorijda-oqiyotgan-davlatlar-orasida-ozbekiston-5-orinda-qayd-etildi.
[4] https://data.uis.unesco.org/index.aspx?queryid=3807.
[5] https://kun.uz/news/2024/05/10/talabalari-xorijda-oqiyotgan-davlatlar-orasida-ozbekiston-5-orinda-qayd-etildi.

Vetnam, Germaniya va O‘zbekiston turibdi. Vetnamdan 137 ming, Germaniyadan 126 ming, O‘zbekistondan 110 ming, Fransiyadan 106 ming, AQShdan 103 ming va Suriyadan 99 ming talaba xorijda tahsil olayotgani ma’lum qilingan[5].

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2018-yilda “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi va bugungi kunga kelib 1000 ga yaqin talaba xorijiy davlatlarning nufuzli universitetlarida ta’lim olib qaytib kelishmoqda.

Ish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini topishga intilish yoshlar migratsiyasining yana bir muhim sababidir. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda 15-24 yoshdagi ishsizlar soni 68 million bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ish topish maqsadida migratsiyani tanlaydi. Germaniya 2020-yilda Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lmagan mamlakatlardan malakali yoshlarni jalb qilishga qaratilgan “Skilled Immigration Act” qonunini qabul qildi. Kanada esa “Express Entry” tizimi orqali malakali yosh mutaxassislarni jalb qilmoqda. 2019-yilda bu tizim orqali 85 ming 300 ta doimiy rezidentlik maqomi berilgan. Yaponiya 2019-yilda “Specified Skilled Worker” vizasini joriy etdi, bu viza orqali 5 yil ichida 345 ming xorijlik yosh ishchilarni jalb qilish rejalashtirilgan[6].

Bugungi kunda dunyo davlatlari o‘z ichki zaxiralarini, tabiiy boyliklarini maksimal darajada saqlab, iqtisodiyotni boshqa faktorlar orqali rivojlantirishga harakat qilmoqda. Hozirgi kunda xorijiy davlatlarda 2,5-3 million o‘zbekistonlik mehnat migranti mavjud[7]. Ularning ko‘p qismi Rossiya, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlarda ishlab yurtimizga yiliga 15-20 milliard dollar pul jo‘natmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bergan ma’lumotlarda ko‘plab mehnat migrantlari hujjatlar bilan bog‘liq muammolarga, shuningdek, mehnati uchun haq ololmaslik holatlariga duch kelishgan. Bundan tashqari transport, sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq muammolar, og‘ir ahvolga tushib qolgan, boshpanasiz va oziq-ovqat bilan ta’minlanmagan fuqarolar mavjudligi va ularga yordam ko‘rsatilgani aytilgan[8].

2024-yil 4-aprelda O‘zbekiston Prezidentining “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Farmonning 1-bandida O‘zbekistonning Buyuk Britaniya, BAA, Vengriya, Germaniya, Latviya, Polsha hamda Yaponiya davlatlaridagi diplomatik va konsullik muassasalari shtat jadvaliga qo‘shimcha ravishda mehnat migratsiyasi masalalari bo‘yicha attashe lavozimini joriy etish belgilandi.

Tashqi mehnat migratsiya-

> BMTning Qochqinlar ishlari bo‘yicha Oliy komissarligi (UNHCR) ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yil oxiriga kelib dunyoda 82,4 million majburiy ko‘chganlar bor va ularning yarmidan ko‘pi bolalar va yoshlardir. Fuqarolar urushi natijasida 5,6 million suriyalik qochqinga aylangan, ularning ko‘pchiligi yoshlardir.



[5] https://kun.uz/news/2024/05/10/talabalari-xorijda-oqiyotgan-davlatlar-orasida-ozbekiston-5-orinda-qayd-etildi.
[6] International Labour Organization (2020). Global Employment Trends for Youth 2020: Technology and the future of jobs
[7] https://kun.uz/news/2022/12/13/xorijda-bolib-turgan-ozbekistonlik-migrantlar-soni-malum-qilindi
[8] https://kun.uz/news/2023/01/05/2022-yilda-mehnat-migrantlarining-12-mln-dollar-miqdoridagi-pullari-undirib-berildi-tashqi-mehnat-migratsiyasi-agentligi.

si agentligining 2022-yilda bergan ma'lumotiga ko'ra, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Rossiyada 20 ta, Qozog'iston va Turkiyada 4 ta vakili faoliyati tashkil etildi.

O'tgan yil davomida xorijdagi 308 mingdan ortiq mehnat migrantiga turli xizmatlar ko'rsatildi. Og'ir ahvolga tushib qolgan 1397 nafar fuqaro O'zbekistonga qaytarildi, xorijlik ish beruvchilardan mehnat migrantlarining 1 million 200 ming AQSh dollari miqdoridagi ish haqlari, kompensatsiya va sug'urta pullari undirib berildi.

Iqtisodiy qiyinchiliklar ko'plab yoshlarni o'z yurtini tark etishga majbur qiladi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlardagi yoshlarning 30 foizidan ortig'i kuniga 3,20 AQSh dollaridan kam mablag' bilan yashaydi.

2019-yilda AQShga Meksika orqali 11 million migrant kelgan, ularning ko'pchiligi yoshlardir. Filippin eng yirik ishchi kuchi eksport qiluvchi mamlakatlardan biri. 2019-yilda 2,2 million filippinlik chet elda ishlagan, ularning 25 fozi 15-29 yoshdagi yoshlardir. Nigeriyada yoshlar ishsizligi darajasi 2020-yilda 53,4 foizni tashkil etgan, bu ko'plab yoshlarni ish qidirib chet elga ketishga majbur qilmoqda. Afrikaning ko'p davlatlaridagi qurg'oqchilik va ocharchilik sabab tub aholining aksariyat qismi dunyoning rivojlangan davlatlariga ko'chib o'tmoqda.

Harbiy mojarolar va siyosiy beqarorlik ko'plab yoshlarni majburiy migratsiyaga undaydi. BMTning Qochqinlar ishlari bo'yicha Oliy komissarligi (UNHCR) ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yil oxiriga kelib dunyoda 82,4 million majburiy ko'chganlar bor va ularning yarmidan ko'pi bolalar va yoshlardir. Fuqarolar urushi natijasida 5,6 million suriyalik qochqinga aylangan, ularning ko'pchiligi yoshlardir. Venesueladagi iqtisodiy va siyosiy inqiroz natijasida 2015-yildan beri 5,4 million venesuelalik mamlakatdan chiqib ketgan, ularning 50 foizdan ortig'i yoshlardir. Janubiy Sudandagi fuqarolar urushi natijasida 2,2 million odam qochqinga aylangan, ularning 65 foizi 18 yoshdan kichik yoshlardir[9].

Bugungi kunda siyosiy mojarolar, urushlar tufayli tinch aholi vakillari ham boshqa hududlarga ko'chishiga to'g'ri kelmoqda. Ukraina–Rossiya urushi tufayli 2023-yil oxirlariga kelib 6,3 million kishi boshpana izlab chet elga chiqib ketgan[10] va ularning aksariyati yoshlar.

"Journal of contemporary European Research" nashrida chop etilgan "Castles va Miller" (2009) keysida ta'kidlanganidek, yoshlar migratsiyasi ko'pincha iqtisodiy va ijtimoiy omillarning murakkab kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladi[11]. Masalan, "Loschmann va Siegel" (2014) keysida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, G'arbiy Afrika mamlakatlaridan Yevropaga yo'l olgan yoshlarning 78 foizi iqtisodiy imkoniyatlar izlab, 15 foizi ta'lim olish uchun va 7 foizi oilaviy muammolari sababli migratsiya qilgan.

Umuman olganda, yoshlar migratsiyasi bugungi kunda global miqyosdagi dolzarb masala bo'lib, davlatlar tomonidan ishlab chiqiladigan dasturlar ushbu jarayonni boshqarishda muhim o'rin tutadi.

AQSh, Yevropa Ittifoqi, Kanada va Xitoy kabi davlatlar yosh migrantlar uchun asosiy manzil bo'lib, ularni jalb qilishga qaratilgan maxsus dasturlar va qonunlar ishlab chiqilgan. Boshqa tomondan, siyosiy beqarorlik va harbiy mojarolar natijasida ko'plab yoshlar majburiy migratsiyaga duch kelib, qochqinlar safini kengaytirmoqda.

O'zbekiston kabi davlatlar o'z fuqarolarini qo'llab-quvvatlash va ularning huquqini himoya qilish uchun migratsiya siyosatini kuchaytirmoqda. O'zbekiston Prezidentning farmonlari va Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi ko'rsatayotgan xizmatlar yoshlar migratsiyasini tartibga solishga qaratilgan muhim qadamlar hisoblanadi.

Doniyorbek DAVRONOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquq kafedrasi o'qituvchisi

[9] UNESCO (2020). Global Education Monitoring Report 2020: Inclusion and education: All means all.
[10] https://reporting.unhcr.org/operational/situations/ukraine-situation
[11] Castles, S., & Miller, M. J. (2009). The age of migration: International population movements in the modern world (4th ed.). Palgrave Macmillan.